



Historical formation of telemedicine and experience of foreign countries

Jaloliddin ASKAROV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 July 2023
Accepted 25 July 2023
Available online
15 August 2023

Keywords:

telemedicine,
technology,
law,
remote service,
citizens' health care,
benefits of telemedicine.

ABSTRACT

This article analyzes the historical development of the telemedicine service, its characteristics, and its main aspects, as well as the opinions of scientists. The indicators of telemedicine on the platforms of foreign countries and leading service platforms were also studied. Issues of legal regulation of telemedicine in the experience of foreign countries are discussed. The bases of legal regulation of telemedicine are determined and the author's conclusions are given.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp417-422>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Teletibbiyotning tarixiy shakllanishi va bu borada xorijiy davlatlar tajribasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

teletibbiyot,
texnologiya,
huquq,
masofaviy xizmat,
fuqarolar sog'lig'ini saqlash,
teletibbiyot afzalliklari.

Mazkur maqolada teletibbiy xizmatning tarixiy shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari va uning asosiy jihatlari tahlil qilinib, olimlarning qarashlari o'rganildi. Shuningdek, teletibbiyotning xorijiy davlatlar platformalarida ishlashi, uning yetakchi xizmat ko'rsatish platformalari o'rganib chiqildi, xorijiy davlatlar tajribasida teletibbiyotni huquqiy tartibga solish masalalari muhokama qilindi. Bundan tashqari, teletibbiyotni huquqiy tartibga solishning asoslari aniqlandi va mualliflik xulosalari berildi.

¹ Senior Lecturer, Department of Business Law, Tashkent State University of Law. Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: j.askarov@tsul.uz

Историческое становление телемедицины и опыт зарубежных стран

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

телемедицина,
технология,
право,
дистанционное
обслуживание,
охрана здоровья граждан,
преимущества
телемедицины.

В данной статье было проведено аналитическое исследование исторического становления телемедицинского сервиса, анализированы его характеристики и основные аспекты, а также проанализированы мнения ученых на эту тему. Кроме того, были изучены ключевые показатели использования телемедицины на платформах зарубежных стран и ведущих сервисных площадках. В статье также подробно рассмотрены вопросы, связанные с правовым регулированием телемедицины на примере опыта зарубежных стран. В результате исследования были выявлены основы правового регулирования телемедицины и сделаны авторские выводы по данной теме.

Teletibbiyot Internet tarmog'ining paydo bo'lishi va undan keyingi texnologik rivojlanish bilan bog'liq. AQShlik mutaxassislar John H. Knowles, Michael Crichton va Ronald S. Weinstein Massachusetts Bosh shifoxonasida birinchi teletibbiyot asosida mashg'ulotlar olib borgan tashabbuskorlardan hisoblanadi. 1969-yilga kelib AQShda teletibbiyot teledasturlarda ko'rsatuv sifatida ko'rsatila boshlangan. 1925-yilda shifokorlar bemorlarga radio orqali tashxis qo'yishni yo'lga qo'ygan. Tibbiy maqsadlar uchun birinchi video aloqa 1959-yilda Nebraska Universitetidagi bemorlar uchun amalga oshirilgan [1].

Ma'lumotlarga ko'ra, AQShda 2020-yilda 18–49 yoshdagi shaxslar uchun teletibbiyotdan foydalanish yanvar oyining birinchi haftasida 68 foizdan mart oyining so'nggi haftasida 73 foizgacha o'sgan [1].

Hozirda ko'pgina xorij mamlakatlarida teletibbiyotdan foydalanilyapti va ko'p jihatlarda afzalligi ko'rinmoqda.

1. Mutaxassislar bilan oson bog'lanish.

Har bir shaxs zarur hollarda qo'ng'iroq qilishi mumkin bo'lgan shifokor bilan doimiy bog'lana olmaydi. Ko'pgina onlayn tibbiy platformalar tarmoqlari kunduzi yoki kechasi istalgan vaqtda turli yo'nalishdagi tibbiyot mutaxassislari bilan ta'minlashni yo'lga qo'ygan. Misol uchun ICliniq kompaniyasida 3000 nafar shifokor tibbiyotning 80 turdagi sohasi bo'yicha beriladigan onlayn savollarga javob berish tizimini yo'lga qo'ygan. Ularning web-sayti, shuningdek, avvalgi so'rovlarga va ularning javoblariga kirishga imkon beradi.

2. Kam xarajat.

Tibbiy xizmatlar ko'pchilik uchun, hatto tibbiy sug'urta bilan ta'minlangan Germaniya fuqarolari uchun ham qimmatga tushishi mumkin. Teletibbiyot xizmatlari ko'rsatilganda odatda shaxsiy tashriflarga qaraganda kamroq xarajat sarflanadi. Misol uchun yo'l haqi tejab qolinadi.

3. Uzoq hududlardagi insonlar uchun qulaylik.

Qishloqda har doim sifatli tibbiy xizmatlar mavjud bo'lmasligi yoki yuqori malakali mutaxassislar doim uzoq joylarda ko'riklar o'tkazmasligi mumkin. Qolaversa, yo'lning uzoq ekanligi bunga to'siq bo'lishi mumkin. Eng yaqin tibbiy muassasadan uzoqda yashovchi bemor uchun teletibbiyot xizmatlari shifokor bilan uchrashishning tezkor usulini taqdim etadi.

4. Shifokorlar uyda qolish mumkin.

Pandemiya davrida ko'plab tibbiyot xodimlari kasallik sababli vafot etdilar yoki turli darajada kasallikka chalindilar. Teletibbiyot platformalari esa shifokorlarga bemorlarni o'z ofislaridan, hatto uydan turib xavfsiz davolash, shuningdek, shifokorlar va bemorlarga dam olish kunlari o'zaro bog'lanish imkoniyatini taqdim etadi.

5. Onlayn psixiatrik yordam.

COVID-19 ko'plab insonlarga shifokorlarni yuzma-yuz ko'rishni qiyinlashtirdi. Teletibbiyot xizmatlari stress, xavotir, depressiya va boshqa ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish va bemorlar bilan suhbatlashish imkonini beradi. Ko'pchilik bemorlar, turli sabablarga ko'ra (uyalish, qo'rquv) shifokor ko'rigiga borishni yoqtirmaydilar. Ba'zi hollarda fobiya sababli shifokorga borish juda qiyindek tuyulishi mumkin. Teletibbiyot yordamida esa uydan chiqmasdan savollar berish va tibbiy xizmatlardan foydalanish insonni ancha xotirjam bo'lishga undaydi. Teletibbiyot shifokorlarga jismoniy tarbiya va turli mashqlar bilan shug'ullanadigan bemorlarni masofadan turib mashqlar bajarish va davolash usullarini nazorat qilish hamda ko'rish imkoniyatini beradi. Bu bemorga baxtsiz hodisalar va operatsiyalardan tezroq tiklanishiga yordam beradi.

Yevropa davlatlarida teletibbiyot turli qonun hujjatlari yoki qonunosti hujjatlari asosida tartibga solingan. Misol uchun, Daniyada teletibbiyot dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, teletibbiyotga qonuniy ruxsat berilgan. Finlandiyada maxsus qonun bo'lmasa-da, turli normativ hujjatlar asosida tartibga solingan, Fransiyada esa 2004-yilda teletibbiyot tushunchasi qonunlarda keltirilgan [2].

Milliy qonunchiligimizda teletibbiyotdan foydalanishga ta'qiq bo'lmasa-da, qonun hujjatlarida ushbu munosabatga yetarli e'tibor berilmagan.

Teletibbiyot va Internet imkoniyatlaridan foydalanish bugungi zamon imkoniyatlaridan o'z o'rnida va vaqtida foydalanishni bildiradi. Amaliyotda allaqachon xizmat ko'rsatayotgan ushbu faoliyat fikrimizcha, qonunchiligimizda o'z ifodasini topishi kerak [3]. Teletibbiyotning huquqiy asoslari bemor va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi turli nizoli holatlarni bartaraf etishga hamda muqobil yechimlar topishga imkon berishi mumkin [4. 47-b.].

P.Moffett va G.Moore davolash standartlari tarixi va uning huquqiy tabiati to'xtatilib, dastlabki davrda odat, XX asrda, odatda amalga oshiriladigan, agar odatdagidek bajarilmasa ham, oqibati oqilona hisoblangan tibbiy standart sifatida baholangan bo'lsa, zamonaviy ta'rifga ko'ra, tibbiy standart malakali shifokor tomonidan amalga oshiriladigan tibbiyot davolash usuli eng minimal shaklda boshqa tibbiyot xodimi tomonidan amalga oshiriladigan standart hisoblanadi [5. 109-b.].

Shuningdek, raqamli tibbiyotning kirib kelishi va elektron shakldagi turli xizmatlar, xususan teletibbiyot, kibertibbiyot va masofaviy xizmatlarga keng yo'l ochdi. Imkoniyatlar kengayishi bilan bir vaqtda tibbiy xizmatda bemor huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibga solishga yanada muhtojlik seziladi, chunki texnologik rivojlanish imkoniyati har doim bir xil bo'lmasligi va barchaning huquqlarini birdek ta'minlay olmasligi mumkin. Aytish kerakki, tibbiy xizmat markazida inson sog'lig'i turar ekan, raqamli rivojlanishning ehtimoliy xavf-xatarlarini bartaraf etish jihatidan ham huquqiy maydonda tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda, tibbiy xizmat ko'rsatish sub'yektlarining huquqiy maqomi, huquqlari va majburiyatlarini belgilash lozim. Daniel Braun, Elena Scepankova, Patrick Holl va Florian Mattheslarga ko'ra [6], raqamlashtirish

davrida iste'molchi huquqlarini himoya qilishda to'g'ridan-to'g'ri veb-saytlarning xizmatlar qoidalarini tahlil qilish va huquqiy baho berish hamda iste'molchi huquqlarini himoya qiluvchi tuzilmalar ko'magida himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, mualliflar tomonidan LegalTech vositalaridan foydalanishga ahamiyat qaratiladi.

Bugungi kunda tartibga solish mexanizmlarining o'ziga xosligidan qat'i nazar, barqarorlik va samaradorlik jihatidan teletibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarini huquqiy tartibga solishning Yevropa davlatlari va AQSHda joriy qilingan tizimlari eng samarali tizimlar hisoblanadi.

Quyida Yevropaning ba'zi davlatlari tajribasiga to'xtalib o'tamiz.

Fransiyada teletibbiyotni huquqiy tartibga solish va teletibbiyot atamasi 2004-yil 13-avgustdagi 2004-810-sonli tibbiy sug'urtaga oid qonunda qo'llanilgan. Maxsus qonun hujjatlari asosida tartibga solishga oid munosabatlar 2009-yil 21-iyuldagi 2009-876-sonli "Bachelot qonuni" asosida shifoxonalarni isloh qilish, bemorlar huquqlarini himoya qilish va hududlarda tibbiy xizmatlarni ko'paytirish maqsadida qabul qilingan [7]. Qolaversa, Fransiya sog'liqni saqlash kodeksi va Covid-19 davrida bir qator maxsus farmonlar bilan tartibga solinadi. Fransiyada teletibbiyot qoidalari har bir masala uchun o'ziga xos shartlar bilan turli xil tibbiy muolajalarni qamrab oladi. Misol sifatida quyidagilar keltiriladi:

- a) telemaslahat asosida masofaviy maslahat berish, tibbiy sug'urta mavjud bo'lganda xarajatlarni qoplash va QR kodli retsept berish;
- b) teleekspertiza (masofadan tibbiy maslahat olish);
- c) tibbiy telemonitoring (ma'lumotlarning masofaviy talqini);
- d) tibbiy teleyordam (tibbiy muolajani bajarishda boshqa mutaxassisning masofaviy yordami).

Shuningdek, Covid-19 tufayli 2020-yil 31-yanvardagi 2020-73-sonli Farmonga ko'ra, Covid-19 bilan kasallangan bemorlar bilan har qanday texnologik vositalardan foydalangan holda telemaslahatlar o'tkazishga ruxsat berildi va keyinchalik teletibbiy maslahat olishda ayrim tibbiy ixtisosliklar bo'yicha maslahat berish amaliyoti amalga oshirildi. Teletibbiyot uchun asosiy shartlar bemorning roziligi, mutaxassislar va bemor ma'lumotlarini identifikatsiya qilish deb belgilangan [8].

Germaniya tajribasi. Germanida teletibbiy xizmat ko'rsatish raqamli tibbiy xizmatlar ko'rsatish deb baholangan va bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish va yangi qonunchilik qabul qilinishiga olib kelgan. Ayniqsa, 2015-yilda Elektron sog'liqni saqlash to'g'risidagi [9], Germaniya Ijtimoiy kodeksiga o'zgartirish kiritish, Shifokorlarning kasbiy xulq-atvor kodeksiga o'zgartirish kiritish, Raqamli ta'minot qonuni qabul qilindi [10]. Mazkur o'zgarishlarning asosiy xususiyatlari:

- a) tibbiy xizmatni raqamlashtirish;
- b) shartnoma bo'yicha shifokorlarga maslahat soatlari uchun onlayn hisob-kitob qilish imkonini beruvchi teletibbiy ilovalarni ishlab chiqish;
- c) dorixonal va kasalxonalarini telematik infratuzilmaga va dorixonalarga uzatiladigan elektron retsept tizimiga bosqichma-bosqich ulanishni majburiy shart etib belgilash.

Shuningdek, raqamli tibbiyotda I va II toifali xavfsiz tibbiy uskunalardan foydalanish va bu bo'yicha Yevropa Ittifoqi Tibbiy uskunalar to'g'risidagi reglament va Direktivasiga rioya etish [11]:

- raqamli tibbiy ilovalar reyestrini yuritish;
- raqamli ilovalar xavfsizlik, funkcionallik, tibbiy uskunalarning sifati, ma'lumotlarni muhofaza [12] qilish kabi normativ qoidalar belgilandi.

Belgiyada teletibbiyotni aniq tartibga soluvchi yoki uning normativ talablarini belgilovchi qonun qabul qilingan bo'lsa-da 2008-yil 21-avgustdagi Elektron sog'liqni saqlash platformasini tashkil etish to'g'risidagi qonun qabul qilingan [10].

Teletibbiyotdan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, elektron aloqa to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish, bemor jismoniy va aqliy jihatdan AKTdan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi belgilangan.

Yevropa Ittifoqi teletibbiyotni tartibga solishga nisbatan xilma-xillik teletibbiyotni huquqiy tartibga solishning milliy qonunchilik va Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan direktivalarda o'z aksini topgan. Boshqa tomondan esa teletibbiy xizmatlarning axborot va tibbiyot sohasida aniq chegaraga ega emasligi hisoblanadi [13]. Fikrimizcha, mazkur jarayonda milliy qonunchilik va YI davlatlarida yagona yondashuvga va kelishuvga erishilmagan.

Shuningdek, Italiya, Niderlandiya, Chexiya, Vengriya, Finlandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya va Shvetsariya davlatlarida maxsus qonun shaklida teletibbiyot munosabatlari tartibga solinmagan. Biroq, davlatlar hukumat qarori, axloq qoidalari, axborot va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, tibbiyotga oid umumiy qonunchilik doirasida huquqiy tartibga solishgan.

AQSh tajribasi. AQShda teletibbiyotni huquqiy tartibga solish ikki darajada amalga oshiriladi: federal va shtat darajasida. Shu sababli teletibbiyotning turli xil ta'riflari mavjud. Masalan, Missisipi shtati qonunida teletibbiyotni tibbiy fikrni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni elektron yoki boshqa vositalar orqali uzatish sifatida belgilaydi. Kaliforniya Sog'liqni saqlash va xavfsizlik kodeksida teletibbiyotni tibbiy xizmatlarni olish usuli sifatida tan oladi [14]. AQSh teletibbiyotini huquqiy tartibga solish federal darajada 1996-yildagi Sog'liqni saqlash sug'urtasi va javobgarligi to'g'risidagi qonun asosida amalga oshiriladi. Mazkur qonunda xavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik va boshqa qoidalar tartibga solingan [15]. AQShda teletibbiyot bilan bog'liq huquqiy mulohazalar 6 xil toifaga bo'linadi: tibbiy litsenziyalash, kasbiy javobgarlik, onlayn retsept, xabardor qilingan rozilik, bemor va shifokor munosabatlarini aniqlash [16]. Ta'kidlash joizki, AQShda teletibbiyot instituti eng birinchi paydo bo'lishi, turli sud nizolarining hal etilishi bilan huquqiy tartibga solishda samarali ishlar amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. YI va AQSh tajribasidan shuni bilish mumkinki, milliy qonunchiligimizda teletibbiyotni huquqiy tartibga solish dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda, avvalo teletibbiyot konsepsiyasini ishlab chiqish, uning huquqiy talqini, ma'lumotlar xavfsizligi va diqqat markazda inson hayotini eng birinchi o'rinda bo'lishi talab etiladi. Chunki, teletibbiyot integratsiyasi, qo'llanilishi, amaliyot bilan bog'liq huquqiy munosabatlar rivojlanib boradi. Onlayn tibbiy maslahat zamonaviy davrda, ayniqsa, COVID-19 avj olgan mahalda har qachongidan ham dolzarb pog'onaga ko'tarildi. Plastik jarrohlik jarayonida ushbu texnikani tasdiqlash uchun yanada chuqur tadqiqotlar talab etiladi. Tibbiy konsultatsiya protseduralarini, kanallarni, shifrlashni va ma'lumotlarni saqlashni standartlashtirishga aniq ehtiyoj bor, shu bilan birga, davolanish sifati va ijtimoiy masofani saqlashda muhim rol o'ynaydi [17].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, teletibbiyotning bugungi imkoniyatlari turli tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda katta yordam beradi. Ayniqsa, uning yuqorida keltirilgan bir qator afzalliklari va xorijiy davlatlarda huquqiy tartibga solinganligi qonunchiligimiz va huquqni qo'llash amaliyotini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.singlecare.com/blog/news/telehealth-statistics/>
2. https://en.digst.dk/media/14145/telemedicine_uk_pdfa_03_11_12.pdf
3. Askarov J. DIGITAL MEDICINE AND LAW //International Journal Of Law And Criminology. – 2023. – Т. 3. – №. 01. – С. 11-15.
4. Saidov, Ibrokhim. "The notice and action procedures in the eu and its role in internet-related disputes." The American Journal of Political Science Law and Criminology 4.08 (2022): 40-47.
5. Moffett, Peter, and Gregory Moore. "The standard of care: legal history and definitions: the bad and good news." Western Journal of Emergency Medicine 12.1 (2011): 109.
6. Braun, Daniel, et al. "Consumer protection in the digital era: The potential of customer-centered legaltech." INFORMATIK 2019: 50 Jahre Gesellschaft für Informatik-Informatik für Gesellschaft (2019).
7. Overview of the national laws on electronic health records in the EU Member States National Report for France / https://health.ec.europa.eu/system/files/2016-11/laws_france_en_0.pdf
8. Digital health laws and regulations on France 2022-2023 / <https://iclg.com/practice-areas/digital-health-laws-and-regulations/france>
9. E-Health in Germany Opportunities for the Dutch Life Sciences & Health sector in Germany / <https://www.tfhc.nl/wp-content/uploads/2019/08/eHealth-in-Germany-barriers-and-opportunities.pdf>
10. Biolegis. (2021). Telemedicine legal framework in Europe & Israel. <https://biolegis.com/wp-content/uploads/2021/09/EU-Legal-Framework-on-Telemedicine.pdf>
11. Regulation (EU) 2017/745 of the European Parliament and of the Council of 5 April 2017 on medical devices, amending Directive 2001/83/EC, Regulation (EC) No 178/2002 and Regulation (EC) No 1223/2009 and repealing Council Directives 90/385/EEC and 93/42/EEC [2017] OJ L117/1. Council Directive 93/42/EEC of 14 June 1993 concerning medical devices [1993] OJ L169/1. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32017R0745>
12. Gerke, Sara, Ariel D. Stern, and Timo Minssen. "Germany's digital health reforms in the COVID-19 era: lessons and opportunities for other countries." NPJ digital medicine 3.1 (2020): 1-6.
13. Raposo V. L.(2016).Telemedicine: The legal framework (or the lack of it) in Europe.GMS Technol Assess, August; vol. 12: Doc 03, pp. 1-12. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC4987488/> (Date of access: the 1st of July, 2019).
14. Богдановская, И.Ю. "Правовое регулирование телемедицины: опыт США." Врач и информационные технологии 3 (2007): 64-68. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-telemeditsiny-opyt-ssha>
15. Karyagina, Ekaterina Nikolayevna, and Roza Iosifovna Sitdikova. "Telemedicine: The concept and legal regulation in Russia, Europe, and USA." Journal of History Culture and Art Research 8.4 (2019): 417-424. <http://193.140.9.50/index.php/ilk/article/view/2390>
16. de Oliveira Andrade, Adriano, et al. "On the use of telemedicine in the context of COVID-19: legal aspects and a systematic review of technology." Research on Biomedical Engineering 38.1 (2022): 209-227.
17. J.Askarov, Onlayn tibbiy xizmatlar va ularning o 'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 6/S. – С. 293-300.